



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muxtorov Karimbek Boymirza o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ishda O'zbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar, ijtimoiy ta'minot tizimi, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va uy-joyga bo'lgan huquqlari, shuningdek, ularning saylov jarayonlarida ishtirokini ta'minlash bo'yicha innovatsion chora-tadbirlar o'rganiladi. Brayer alifbosi asosidagi materiallar, qo'shimcha audio, vizual va interaktiv platformalar orqali saylov jarayonida nomzodlar haqida ma'lumot yetkazish, ovoz berish jarayonini soddalashtirish va chekka hududlardagi fuqarolarni jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxs, saylov, ijtimoiy himoya, qonun, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, brayer alifbosi, platforma.

ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Мухторов Каримбек Боймирза угли

Гулистанский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются особенности системы социальной защиты в формировании политического сознания и культуры лиц с ограниченными возможностями. В работе исследуются конституционно-правовые гарантии в Республике Узбекистан, система социального обеспечения, права лиц с ограниченными возможностями в сферах труда, образования, здравоохранения и жилищного обеспечения, а также инновационные меры, направленные на обеспечение их участия в избирательных процессах. Рассматриваются возможности предоставления информации о кандидатах в ходе выборов с использованием материалов на основе шрифта Брайля, а также дополнительных аудио-, визуальных и интерактивных платформ для упрощения процедуры голосования и привлечения граждан, проживающих в удалённых районах.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями, выборы, социальная защита, закон, Всемирная организация здравоохранения, шрифт Брайля, платформа.

PECULIARITIES OF THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN SHAPING THE POLITICAL AWARENESS AND CULTURE OF PERSONS WITH DISABILITIES

Mukhtorov Karimbek Boymirza o'g'li

Gulistan State Pedagogical Institute, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the peculiarities of the social protection system in shaping the political awareness and culture of persons with disabilities. The study examines the constitutional and legal guarantees in the Republic of Uzbekistan, the social welfare system, the rights of persons with disabilities in the fields of labor, education, healthcare, and housing, as well as innovative measures aimed at ensuring their participation in electoral processes. The article also explores the provision of information about candidates during elections using Braille-based materials, as well as additional audio, visual, and interactive platforms to simplify the voting process and involve citizens residing in remote areas.

Keywords: persons with disabilities, elections, social protection, law, World Health Organization, Braille, platform.

Zamonaviy globallashuv sharoitida nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini shakllantirish masalasi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining salmoqli qismi —

taxminan bir milliard nafarga yaqin inson turli shakldagi nogironlik bilan yashamoqda. Biroq ushbu ijtimoiy guruhning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ayniqsa, demokratik institutlar doirasida, hanuzgacha yetarli darajada ta'minlanmagan bo'lib qolmoqda. Bu esa ularning siyosiy ongi va madaniyatining shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy hayotdagi faolligini cheklovchi omillar kompleks xarakterga ega bo'lib, ular institutsional, huquqiy, ijtimoiy va madaniy to'siqlar tizimidan iboratdir [1]. Xususan, siyosiy institutlar va parlament tuzilmalarining jismoniy hamda axborot jihatdan yetarli darajada moslashtirilmaganligi, siyosiy axborotning inklyuziv formatlarda taqdim etilmasligi, shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligi nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ishtirokini qisman cheklaydi. Ayrim muomalaga layoqatsizlik bilan bog'liq normativ-huquqiy cheklovlarning mavjudligi esa ularning saylov huquqlari va siyosiy faolligiga bevosita to'sqinlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Ushbu yo'nalishdagi nazariy asoslarni tadqiq etishda jahon miqyosidagi olimlar Amartya Sen [2] va Martha Nussbaum [3]ning qarashlari fundamental ahamiyatga ega. Xususan, A. Sen tomonidan ilgari surilgan "imkoniyatlar yondashuvi" (Capability Approach) nogironlikni an'anaviy tibbiy tushunchadan ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya darajasiga ko'tardi. Senning fikricha, inson farovonligi uning ega bo'lgan resurslari bilan emas, balki o'sha resurslardan foydalana olish qobiliyati va hayotiy tanlovlari erkinligi bilan o'lchanadi. Shu nuqtayi nazardan, nogironlik shaxsning funksional imkoniyatlarini cheklovchi tashqi muhit va ijtimoiy to'siqlar majmuasi sifatida talqin etiladi. M. Nussbaum esa ushbu yondashuvni yanada konkretlashtirib, davlat va jamiyat tomonidan kafolatlanishi shart bo'lgan markaziy insoniy imkoniyatlar ro'yxatini ishlab chiqdi [3]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi shunchaki xayriya emas, balki inson qadr-qimmatini ulug'lovchi adolatli ijtimoiy shartnomaning ajralmas qismidir.

Post-sovet hududidagi ilmiy izlanishlarda esa ushbu masala tizimli transformatsiya davridagi ijtimoiy moslashuv va siyosiy ishtirok kontekstida o'rganilmoqda. V. Danilov [4] va E. Shcherbakova [5] kabi tadqiqotchilarning ishlari ushbu mintaqadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-siyosiy subyekt sifatidagi mavqeyini tahlil qilishga yo'naltirilgan. V. Danilov nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy faolligini oshirish orqali ularning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvini tadqiq etar ekan, inklyuziv siyosiy muhit yaratishning institutsional jihatlariga e'tibor qaratadi [4].

E. Shcherbakova esa ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, nogironlikni aniqlashning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga o'tish hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning manzilliligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi [5]. Umumlashtirib aytganda, xalqaro va mintaqaviy olimlarning tadqiqotlari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishda nafaqat iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, balki ularning jamiyatning to'laqonli va faol a'zosi sifatida namoyon bo'lishlari uchun barcha siyosiy-huquqiy sharoitlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Natija va muhokama. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 128-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi kafolatlangan [6]. 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan "Saylov kodeksi"ning 4-moddasida saylov huquqining umumiy ekanligi, unda jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning teng ishtirok etishi belgilangan [7]. Shuningdek, 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida nogironlik belgisiga ko'ra kamsitishga yo'l qo'ymaslik va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotga inklyuziv jalb qilinishi davlatning asosiy vazifasi etib huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan [8]. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda keng tarqalgan stereotiplar va ijtimoiy stigmatizatsiya nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy subyekt sifatida qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan ayollar kesimida bu muammo ikki karra diskriminatsiya — gender va nogironlik asosidagi tengsizlik bilan murakkablashadi. O'zbekiston Respublikasi saylov jarayonlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning faol ishtirokini ta'minlash borasida bir qator inklyuziv chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, saylov hujjatlari va axborot materiallari Brayl alifbosi asosida tayyorlanib, ko'zi ojiz yoki ko'rish qobiliyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratishga qaratilgan. Ushbu yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov jarayonlarida teng huquqli ishtirokini ta'minlashda muhim vosita sifatida baholanadi. Natijada mazkur ijtimoiy qatlam siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridan chetda qolib, ularning manfaatlari yetarli darajada ifodalanmaydi.

Biroq amaliyot ko'rsatadiki, baxtsiz hodisalar yoki kasallik natijasida nogironlikka ega bo'lgan

ayrim fuqarolar Brayl alifbosini bilmasligi mumkin. Bu esa axborot yetkazishning mavjud tizimida bo'shliq yuzaga kelishiga olib keladi va nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov jarayonlaridagi siyosiy faolligini to'liq ta'minlashga imkon bermaydi. Shu sababli nogironligi bo'lgan fuqarolarga saylov va boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida axborotni yetkazishning yangi, maxsus tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday tizim quyidagi talablarni qamrab olishi lozim:

- nogironlikning turlarini inobatga olgan holda axborot vositalarining moslashtirilishi, masalan, ko'rish, eshitish yoki harakat qobiliyati cheklangan shaxslar uchun;
- Brayl alifbosidan tashqari qo'shimcha audio, vizual va interaktiv platformalarning joriy etilishi;
- saylov jarayoni bo'yicha ma'lumotlarning tushunarli va yetarli darajada taqdim etilishi, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini anglashini ta'minlash;
- maxsus o'quv va amaliy dasturlar orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy savodxonligini oshirish.

Shu tariqa, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongini rivojlantirish va madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy himoya tizimi nafaqat moddiy va huquqiy kafolatlarni, balki axborot yetkazishning inklyuziv va samarali tizimini ham o'z ichiga olishi lozim. Bu jarayon demokratik jamiyatning barqarorligini mustahkamlash va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida teng va faol ishtirokini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov jarayonlarida teng va faol ishtirokini ta'minlashda innovatsion axborot-kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda qo'shimcha audio, vizual va interaktiv platformalarni yaratish amaliyoti samarali natijalar beradi. Ushbu platforma orqali saylov jarayonida nomzodlar haqida to'liq ma'lumot audio va vizual formatlarda taqdim etilishi, fuqarolar o'zlari tanlagan nomzod uchun xavfsiz va qulay tarzda ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bunday tizimning yaratilishi, birinchidan, saylovlarda ko'chma usul, ya'ni uyma-uy yurib ovoz olish imkoniyatiga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun jarayonni yengillashtiradi.

Ikkinchidan, interaktiv platforma natijalarni tez, ishonchli va samarali tarzda yig'ish hamda qayta ishlash imkonini beradi, bu esa saylovning shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Biz yuqorida keltirgan normativ-huquqiy hujjatlar taklif etilayotgan interaktiv platformani joriy etishda institutsional zamin yaratishga xizmat qiladi. Saylov kodeksining 20-1-moddasida keltirilgan tuman, shahar saylov komissiyasi vakolatlari: komissiyaning "saylovni tashkil etish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish" hamda "nomzodlar dasturlarini uchastkalariga yetkazib berishni ta'minlash" majburiyati platforma orqali raqamli formatda (audio, video, surdotarjima) amalga oshirilishi mumkin [7].

Shuningdek, 24-modda (uchastka saylov komissiyasi vakolatlari): komissiyaning "saylovchilarni ro'yxat bilan tanishtirish" va "ovoz berishni tashkil etish" vazifasi interaktiv platforma yordamida "inklyuziv raqamli xizmat" shaklida kengaytirilishi qonunga zid kelmaydi. Biz tomonimizdan taklif etilayotgan ushbu platforma Saylov kodeksining 31-moddasida saylov byulletenlari Brayl alifbosida tayyorlanishi mumkinligi ko'rsatilgan [7]. Biroq Brayl alifbosini bilmaydiganlar uchun interaktiv platformadagi audio-kontent va vizual signallar Kodeksning "saylov tashkilotchilari saylovchilarga qulay sharoit yaratishi shart" degan umumiy tamoyiliga (49-modda) muvofiq keladi [7]. Interaktiv platformani joriy etishda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida kiberxavfsizlik va shaxsiy maxfiylik kafolatlanishi lozim. Amaldagi Saylov kodeksining 31, 49 va 50-moddalariga qo'shimcha ravishda, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun "Maxsus interaktiv saylov portali" tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu portal qonunchilikka muvofiq axborot olish huquqi bo'yicha oshkorlik tamoyilini audio-vizual formatda yanada boyitadi. Ovoz berish huquqi bo'yicha kodeksning 51-moddasidagi "ovoz berish binosi va joyi" tushunchasiga "masofaviy inklyuziv ovoz berish imkoniyati" sifatida qo'shimcha huquqiy maqom berishni talab qiladi.

Shuningdek, taklif etilayotgan ushbu platforma nafaqat texnik yechim, balki O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining 29-moddasi (siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish) talablarining amaliy ijrosini ta'minlovchi huquqiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi [9].

Shuningdek, mazkur platforma chekka hududlarda yashovchi nogironligi bo'lgan shaxslarni ham saylov jarayoniga jalb qilish imkonini yaratadi, ularning siyosiy ongini shakllantirish va madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, interaktiv saylov platformalari ijtimoiy himoya tizimining zamonaviy inklyuziv komponenti sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi teng huquqli ishtirokini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya tizimi aynan shu muammolarni bartaraf etishda muhim institutsional mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Uning asosiy vazifasi nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, balki ularning ijtimoiy faolligini, shu jumladan, siyosiy ishtirokini rag'batlantirishdan iboratdir. Samarali ijtimoiy himoya tizimi nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish, axborotga erkin kirish, mehnat faoliyatida qatnashish hamda jamoat hayotida faol bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning siyosiy ongini shakllantirish va siyosiy madaniyatini rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy asosni yaratadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongini shakllantirish jarayonida ijtimoiy himoya tizimining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Birinchidan, inklyuzivlik tamoyili barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali siyosiy jarayonlarga keng jalb etish.

Ikkinchidan, moslashuvchanlik nogironlikning turli shakllarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash.

Uchinchidan, institutsional integratsiya — ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va siyosiy institutlar o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlash.

To'rtinchidan, huquqiy kafolatlarning mustahkamligi — nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy huquqlarini xalqaro standartlar asosida himoya qilish.

Xalqaro tajriba, xususan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi BMT Konvensiyasi, nogironlikka inson huquqlari yondashuvi asosida qarash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, nogironlik individual muammo emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlar natijasidir. Shu bois ijtimoiy himoya tizimi nafaqat kompensator mexanizm, balki transformatsion vosita sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Ya'ni u jamiyatni inklyuziv rivojlanish yo'liga yo'naltirib, siyosiy institutlarni ham nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirishi kerak.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish esa ularning huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash hamda siyosiy jarayonlarda ongli ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada ijtimoiy himoya tizimi doirasida amalga oshiriladigan ma'rifiy dasturlar, inklyuziv ta'lim siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu tizimning inklyuziv, huquqiy jihatdan kafolatlangan va institutsional jihatdan uyg'unlashgan holda rivojlanishi nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy hayotdagi to'laqonli ishtirokini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Natijada bu nafaqat alohida ijtimoiy guruh manfaatlarini himoya qilishga, balki umuman jamiyatda demokratik qadriyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy demokratik jamiyatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bevosita davlatning ijtimoiy siyosati, ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish hamda siyosiy ongini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Avvalo, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi shakllanishida konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, barcha fuqarolar teng huquqlarga ega ekanligi belgilangan. Shu asosda nogironligi bo'lgan shaxslar ham siyosiy hayotda ishtirok etish, saylash va saylanish, davlat boshqaruvida qatnashish huquqlariga egadirlar. Bu esa ularning siyosiy ongini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimi nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya nafaqat moddiy yordam (pensiyalar, nafaqalar), balki ijtimoiy xizmatlar, rehabilitatsiya, ta'lim va bandlikni ta'minlash orqali ham amalga oshiriladi. Aynan shu kompleks yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvini kuchaytiradi va ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga undaydi.

Uchinchidan, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qonunlar va dasturlar mavjud. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun ularning ta'lim olish, mehnat qilish, axborotga erkin kirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu huquqiy baza nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini

o'shinish uchun mustahkam zamin yaratadi.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining roli ham beqiyosdir. Nogironlar tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va turli ijtimoiy loyihalar orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlari himoya qilinadi, ularning huquqiy savodxonligi oshiriladi. Bu esa ularning siyosiy ongini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn platformalar, masofaviy ta'lim va elektron davlat xizmatlari orqali ular siyosiy jarayonlardan xabardor bo'lish, o'z fikrini bildirish va davlat boshqaruvida bilvosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, mazkur sohada ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada moslashtirilmaganligi, axborotga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayrim hollarda jamiyatda mavjud stereotiplar nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy faolligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli bu yo'nalishda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa. Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy himoya tizimi muhim va o'ziga xos rol o'ynaydi. O'zbekiston misolida bu tizim nafaqat huquqiy va moddiy kafolatlarni, balki fuqarolarning mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur tizimning samaradorligi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, siyosiy ongini rivojlantirishi va demokratik qadriyatlarni qabul qilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan fuqarolarning saylov jarayonlarida ishtirokini ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Brayl alifbosi asosidagi materiallar, qo'shimcha audio, vizual va interaktiv platformalar saylov huquqlarini inklyuziv tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunday platformalar orqali nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlari tanlagan nomzodga xavfsiz va qulay tarzda ovoz berishi, chekka hududlar va uy sharoitida bo'lgan fuqarolarni ham jarayonga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongini shakllantirish va madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy himoya tizimi kompleks yondashuvni talab qiladi. U huquqiy kafolatlar, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va zamonaviy axborot platformalarining uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu tarzda tashkil etilgan tizim nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, siyosiy faolligini oshirish va demokratik jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boymirza o'g'li M. K. The factor of ideological stability in the evolution of attitudes towards persons with disabilities // Conference of Advance Science & Emerging Technologies. – 2025. – Vol. 1, No. 4. – Pp. 39–41.
2. Sen A. Development as Freedom. – New York: Knopf, 1999. – 357 p.
3. Nussbaum M. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership. – Cambridge, MA: Belknap Press, 2006. – 432 p.
4. Данилов В. Социальная защита и политическая активность инвалидов в постсоветских странах. – Москва: Наука, 2018. – 224 с.
5. Щербакова Е. Инклюзивное образование и права инвалидов. – Санкт-Петербург: Питер, 2017. – 176 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent, 2023-yil 30-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. – Toshkent, 2019-yil 26-iyun.
8. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – 2020-yil 15-oktyabr.
9. UNDP. Inclusive participation of persons with disabilities in political processes. – New York: United Nations Development Programme, 2021. – 64 p.